

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B 53.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI
INSTITUTI**

RAHIMOVA GULZOR XO‘JABERGAN QIZI

***G.HIRSUTUM* L. RANGLI TOLALI NAV NAMUNALARINING F₁-F₂
DURAGAYLARIDA MORFOXO‘JALIK BELGILARINING
IRSIYLANISHI, O‘ZGARUVCHANLIGI VA KORRELYATSIYASI**

03.00.09 – Umumiy genetika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Rahimova Gulzor Xo‘jabergan qizi

G.hirsutum L. rangli tolali nav namunalarining F₁-F₂ duragaylarida morfoxo‘jalik belgilarining irsiylanishi, o‘zgaruvchanligi va korrelyatsiyasi.....3

Раҳимова Гулзор Хўжаберган қизи

Наследование, изменчивость и корреляция морфохозяйственных признаков у гибридов F₁-F₂ сортообразцов *G.hirsutum* L. с цветным волокном.....21

Rahimova Gulzor Khojabergan kizi

Inheritance, variability and correlation of morpho-agronomic traits in F₁-F₂ hybrids of naturally colored fiber *G.hirsutum* L. varietal samples..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B 53.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI
INSTITUTI**

RAHIMOVA GULZOR XO‘JABERGAN QIZI

***G.HIRSUTUM* L. RANGLI TOLALI NAV NAMUNALARINING F₁-F₂
DURAGAYLARIDA MORFOXO‘JALIK BELGILARINING
IRSIYLANISHI, O‘ZGARUVCHANLIGI VA KORRELYATSIYASI**

03.00.09 – Umumiy genetika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/B1053 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.genetika.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nabiev Saydig'ani Muxtorovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Baboyev Saidmurat Kimsanboyevich
biologiya fanlari doktori, professor

Turayev Ozod Sunnataliyevich
biologiya fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

**Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish
agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.53.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «_____» _____ kuni soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori yuz 266-uy, Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali. Tel.: (99871) 264-23-90, faks: (99871) 264-23-90, E-mail: igebr@academy.uz, igebr_anruz@mail.ru, genetika@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori yuz 266-uy, Genetika va eksperimental biologiya instituti. Majlislar zali. Tel.: (99871) 264-23-90).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil «_____» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A. Narimanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, q/x.f.d., professor

I.Dj. Kurbanbayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, b.f.d.,
professor

I.T.Qahhorov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, q/x.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ekologik sof organik mahsulotlarga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Shu o‘rinda, tabiiy rangli paxta ekologik ifloslanishni bartaraf etishda muhim o‘rin tutadi hamda iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan samarali hisoblanadi. Rangli tolali g‘o‘zani yetishtirish to‘lani bo‘yash uchun ketadigan sarf-xarajatlarni tejash va inson organizmi uchun bezarar bo‘lgan tabiiy mahsulot olish imkonini beradi. Tabiiy rangli toladan tayyorlangan matolar yuqori havo o‘tkazuvchanligi, antiseptik, gidrofob, issiqqa chidamlilik va ultrabinafsha nurlaridan yuqori darajada himoya qilish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ammo, tabiiy rangli paxtadan foydalanish uning to‘la sifat ko‘rsatkichlari pastligi, yigirish talablariga mos kelmasligi sababli cheklangan. Shu boisdan, rangli tolali g‘o‘zada sifat va miqdoriy belgilarning irsiylanishi, o‘zgaruvchanligi hamda ularning to‘la rangi bilan bog‘liqligiga asoslangan holda istiqbolli seleksion ashyolarni ajratib olish — sifati yuqori rangli tolali navlarni yaratishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda global iqlim o‘zgarishi jarayoni ro‘y berayotgani hamda zararli kimyoviy moddalarning tabiiy muhitga salbiy ta‘siri kuchayib borayotgani sababli, ekologik sof mahsulotlarni yetishtirish, jumladan, rangli tolali g‘o‘zaning to‘la sifati yuqori va hosildor navlarini yaratish uchun genetik-seleksion, fiziologik, biokimyoviy, molekulyar genetik va gen muxandisligi bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, tabiiy rangli tolali nav namunalarning o‘zaro va oq tolali navlar bilan olingan duragaylarida morfoxo‘jalik belgilarining irsiylanishi, o‘zgaruvchanligi va korrelyatsiyasi xususiyatlarini aniqlash asosida qimmatli genotiplarni ajratib olishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i bo‘lgan paxtachilik sohasida muayyan yutuqlarga erishildi. Jumladan, g‘o‘zaning tezpishar, hosildor, to‘la chiqimi yuqori, kasalliklarga chidamli ko‘plab navlari yaratilib amaliyotga joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “mahalliy tuproq-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo‘jalik ekinlarining yangi seleksion navlarini yaratish” vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, *G.hirsutum* L. rangli tolali nav namunalarning F₁-F₂ duragaylarida morfoxo‘jalik belgilarining irsiylanishi, o‘zgaruvchanligini, sifat va miqdor belgilari o‘rtasidagi bog‘liqlikni, nav namunalarning xo‘jalik belgilari bo‘yicha kombinatsion qobiliyatini aniqlash asosida g‘o‘zaning rangli tolali istiqbolli ashyolarni ajratish va seleksiya jarayonida qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60- sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi, 2019 yil 17 iyundagi PF-5742 - son “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2023 yil 10 yanvardagi PF-2-sonli “Paxta to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tabiiy rangli tolali g‘o‘zada genetik-seleksion, fiziologik, molekulyar genetik va gen muxandisligi bo‘yicha izlanishlar dunyoning qator davlatlari, jumladan Xitoy, AQSh, Hindiston, Turkiya, Pokiston va boshqa ko‘plab mamlakatlar ilmiy markazlarida olib borilmoqda. Xorijiy olimlar (Fox S.1987; Fursov N.V. 1995; Crews P.C. 2005; Jyoti Ch. 2010; Khan A.I. 2010; Ma M. 2013; Carvalho L.P. 2014; Feng H. 2015; Rathinamoorthy R. 2017; Tonk F.A. 2017; Soares L.A.D.A. 2018; Gizem K.G. 2018; Gong W. 2018; Li Y.J., 2018; Günaydin G.K. 2019; Nivedha R., 2020; Sun J., 2021; Tang Z., 2021; Atav R., 2022; Barros M.A., 2022, Wen T., 2024; Naoumkina M.va boshqalar, 2024) tomonidan tolada rang hosil bo‘lish jarayonlari, tola rangining irsiylanishi va rangli tolaning xususiyatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Mahalliy olimlar (Muxamedxanov U.X., 1981; Simongulyan N.G., 1984; Shleyxer A.I. 1990; Saydaliev X. 2009; Musaev Dj.A. 2010; Turabekov Sh. 2011; Bekmuxamedov A.A., 2014; Xalikova M.B. va boshqalar, 2023) tomonidan g‘o‘zada tola rangi va boshqa morfoxo‘jalik belgilarining irsiylanish va o‘zgaruvchanlik qonuniyatlari o‘rganilgan.

Biroq, g‘o‘zaning turlicha (yashil, qo‘ng‘ir) rangli tolali nav namunalarining duragaylarida tola sifat belgilarining tola rangiga bog‘liq holda o‘zgaruvchanligi, sifat va miqdor belgilari o‘rtasidagi korrelyatsiyasi, namunalarning kombinatsion qobiliyatini aniqlash bo‘yicha izlanishlar yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti ilmiy-tadqiqot ish rejasining “G‘o‘zaning turlararo va turichi tizmalarining suv tanqisligiga fiziologik va morfoxo‘jalik belgilari bo‘yicha genotipik reaksiyalarini tadqiq etish va urug‘lik materiallarini ko‘paytirish” mavzusidagi dasturi (2022-2024) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. *G.hirsutum* L. turi rangli tolali nav namunalarining o‘zaro va oq tolali navlar bilan olingan F₁-F₂ duragaylarida morfoxo‘jalik belgilarining irsiylanishi, o‘zgaruvchanligi va korrelyatsiyasi xususiyatlarini aniqlash asosida qimmatli genetik-seleksion ashyolarni ajratib olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

G.hirsutum L. turi rangli tolali nav namunalarining o‘zaro va oq tolali navlar bilan olingan F₁ duragaylarida tola rangi va qimmatli xo‘jalik belgilarining irsiylanishini gibridologik tahlil qilish;

F₂ avlodda tola rangi va qimmatli xo‘jalik belgilarining o‘zgaruvchanligini

gibridologik tahlil qilish hamda qimmatli xo‘jalik belgilarining irsiylanish koeffitsiyenti (h^2) ni aniqlash;

turlicha tola rangiga ega nav namunalarning ayrim xo‘jalik belgilari bo‘yicha kombinatsion qobiliyatini aniqlash;

rangli tolali nav namunalarning o‘zaro va oq tolali navlar bilan olingan F_2 duragaylarida tola sifati ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish;

F_2 duragay kombinatsiyalarida sifat va miqdor belgilari korrelyatsiyasini, ya’ni tola rangi bilan xo‘jalik hamda tola sifati belgilari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash;

rangli tolali g‘o‘za genotiplarida qurg‘oqchilik va sho‘rga chidamlilik hamda tola sifati belgilariga genetik bog‘langan DNK markerlar samarasini baholash;

rangli tolali F_2 duragaylari populyatsiyasidan istiqbolli seleksion ashyolarni ajratib olish va keyingi tadqiqotlarda foydalanish uchun tavsiya etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida *G.hirsutum* L. turiga mansub rangli tolali namunalardan yashil tolali katalog raqamlari: 011460 va A-800 namunalari, qo‘ng‘ir tolali: katalog raqamlari 010765, 010108 namunalari, oq tolali “Gulshan” va “Sadaf” navlari va ularni o‘zaro diallel chatishtirilgan F_1 - F_2 duragaylari olingan.

Tadqiqotning predmetini *G.hirsutum* L. rangli tolali nav namunalarning F_1 - F_2 duragaylarida morfoxo‘jalik belgilarining irsiylanish va o‘zgaruvchanlik xususiyatlari hamda sifat va miqdoriy belgilar o‘rtasidagi korrelyatsion munosabatlar tashkil etgan.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada g‘o‘zaning klassik genetik-seleksion usullari, duragaylash, gibridologik tahlil, qiyosiy morfologik, fenologik kuzatuvlar shuningdek, molekulyar genetik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor *G.hirsutum* L. turiga mansub qo‘ng‘ir va yashil rangli tolali namunalarning chatishtirilishidan olingan F_1 - F_2 avlodlarining gibridologik tahlili hamda tahliliy chatishtirish asosida, qo‘ng‘ir va yashil tolali ota-ona namunalari digen ($Br^{Li} _ Gr^{Li}$) farqlanishga ega ekanligi va tola rangining irsiylanishida genlarning o‘zaro epistatik ta’siri mavjudligi aniqlangan;

umumiy kombinatsion qobiliyatning yuqori samarasi tola chiqimi belgisi bo‘yicha Sadaf, Gulshan, 010765 namunalari, tola uzunligi bo‘yicha 011460, Sadaf, A-800 larda, 1000 ta chigit og‘irligi bo‘yicha 011460 va A-800 namunalari ekanligi, F_1 duragaylarida qimmatli-xo‘jalik belgilarining namoyon bo‘lishida noadditiv genlarga nisbatan additiv genlarning samarasi ustunligi isbotlangan;

rangli tolali namunalarning o‘zaro va oq tolali navlar bilan olingan duragay kombinatsiyalarida ayrim morfoxo‘jalik belgilarining irsiylanishi, o‘zgaruvchanlik ko‘lami va irsiylanish koeffitsiyenti (h^2) ning gibridologik tahlili amalga oshirilgan;

tolaning texnologik sifat ko‘rsatkichlarining tola rangiga bog‘liq holdagi qiyosiy tahlili asosida rangli tolali namunalarning ichida yashil tolali 011460 namunasi va uning duragaylarida tola sifati qo‘ng‘ir tolali namunalarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan;

tolaning qo‘ng‘ir rangi bilan tola chiqimi orasida o‘rtacha darajadagi ($r=0,50^{***}$) ijobiy korrelyatsiya, tolaning yashil rangi bilan tolaning yuqori o‘rtacha uzunligi (UHML), ip yigiruvchanlik koeffitsiyenti (SCI) va bir xillik indeksi (UI)

oʻrtasida turli darajadagi ($r=0,41^*$, $r=0,83^{****}$) ijobiy korrelyatsiya aniqlangan;

turlicha rangli tolali nav namunalari genotiplarida qurgʻoqchilikka chidamlilik uchun NAU1190_220, shoʻrga chidamlilik uchun BNL3347_110, TMB1295_200 va BNL3424_215, tolaning mikroneyriga BNL1604_137, NAU3588_250 va DPL0530_330, tolaning solishtirma uzilish kuchiga BNL1604_137 DNK markerlari yuqori samaradorligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqotlar natijasida, rangli tolali namunalardan tola uzunligi va 1000 ta chigit ogʻirligi belgilar boʻyicha yashil tolali 011460 namunasi, tola chiqimi belgisi boʻyicha qoʻngʻir tolali 010765 namunasi kelgusida bu belgilar boʻyicha yuqori koʻrsatkichli navlar yaratish maqsadida tanlangan;

rangli tolali nav namunalarning oʻzaro va oq tolali navlar bilan olingan F_1 duragaylaridan oʻsimlik mahsuldorligi boʻyicha geterozis samarasiga ega duragaylar, F_2 avlodidan tola sifati yuqori ijobiy transgressiv shakllar ajratib olingan;

turlicha rangli tolali gʻoʻza genotiplarida qurgʻoqchilik va shoʻrga chidamlilik hamda tola sifati belgilariga genetik bogʻlangan DNK markerlar samarasini baholash orqali markerlar tanlangan;

rangli tolali nav namunalarning oʻzaro va oq tolali navlar bilan olingan duragaylaridan F_2 010108×Sadaf (qoʻngʻir); Sadaf×010108 (novvotrang); 011460×Sadaf (och yashil); Sadaf×011460 (yashil); 011460×010108 (oraliq-yashilsimon qoʻngʻir) kabi qimmatli seleksion ashyolar ajratib olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan natijalarning dunyo hamda mamlakatimiz olimlari tadqiqot natijalari bilan qiyosiy tahlil qilinganligi, tajribalarda qoʻllanilgan ilmiy yondashuv hamda usullar asosida olingan natijalarning nazariy maʼlumotlarga mos kelishi, ilmiy tadqiqot natijalarining xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlardagi muhokamasi hamda yetakchi ilmiy jurnallarda chop etilganligi, olingan raqamli koʻrsatkichlarning genetik-statistik (Statgraphics 18 va NCSS dasturlari (ANOVA)) tahlillari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *G.hirsutum* L. turiga mansub rangli tolali namunalari oʻzaro va oq tolali navlar bilan chatishtirilib, tola rangi va qimmatli xoʻjalik belgilarining F_1 duragaylarida irsiylanishi, F_2 da oʻzgaruvchanligi va irsiylanish koeffitsiyenti (h^2) aniqlanganligi, qoʻngʻir va yashil tola rangiga ega ota-ona namunalari tola rangi boʻyicha digen farqlanishga egaligi va tola rangining irsiylanishida genlarning oʻzaro epistatik taʼsiri mavjudligi ochib berilgani, ota-ona va duragay genotiplarining belgilar boʻyicha kombinatsion qobiliyati, tolaning texnologik sifat koʻrsatkichlarining tola rangiga bogʻliq holdagi qiyosiy tahlili hamda miqdoriy belgilarining tola rangiga bogʻliqligi, yaʼni sifat va miqdor belgilari oʻrtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari va turlicha rangli tolali nav namunalari genotiplarida qurgʻoqchilik va shoʻrga chidamlilik hamda tola sifati belgilariga genetik bogʻlangan markerlar samarasi aniqlanganligi va tahlil qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati gʻoʻza genetikasi va seleksiyasida rangli tolali namunalardan foydalanish samarasi, oʻsimlik mahsuldorligi boʻyicha ijobiy geterozisli F_1 duragay kombinatsiyalarining ajratib olinganligi, F_2 avlodida

ayrim qimmatli xo‘jalik belgilari bo‘yicha ota-onaga nisbatan keng ko‘lamdagi o‘zgaruvchanlikning aniqlangani, rangli tolali g‘o‘za genotiplarida qurg‘oqchilik va sho‘rga chidamlilik hamda tola sifati belgilariga genetik bog‘langan DNK markerlar samarasini baholash orqali markerlar tanlanganligi, rangli tolali ijobiy transgressiv shakllar ajratib olinganligi va keyingi genetik-seleksion tadqiqotlarda foydalanishga tavsiya etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *G.hirsutum* L. rangli tolali nav namunalarining F₁-F₂ duragaylarida morfoxo‘jalik belgilarining irsiylanishi, o‘zgaruvchanligi va korrelyatsiyasi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yashil va qo‘ng‘ir rangli tolali nav namunalarning o‘zaro va oq tolali navlar bilan olingan duragaylari, ya‘ni F₂ 010108×Sadaf (qo‘ng‘ir); Sadaf×010108 (novvotrang); 011460×Sadaf (och yashil); Sadaf×011460 (yashil); 011460×010108 (oraliq-yashilsimon qo‘ng‘ir) kabi yangi irsiy asosga ega seleksion qimmatli ashyolarning urug‘lari O‘zR FA Genetika va O‘EBI “G‘o‘za genofondi” noyob obyekti kolleksiyasiga taqdim etilgan va AD1-04481, AD1-04482, AD1-04483, AD1-04484 va AD1-04485 katalog raqamlari berilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025 yil 13 fevraldagi № 4/1255-385-son ma‘lumotnomasi). Natijada, g‘o‘za kolleksiyasi qimmatli-xo‘jalik belgilari ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan rangli tolali namunalar bilan boyitilgan;

tola rangi, sifati va qimmatli xo‘jalik belgilarini baholash bo‘yicha tanlab olingan ashyolardan FZ-2021100758 - “*G.hirsutum* L. turiga mansub rangli tolali g‘o‘za navlarini yaratishning genetik-seleksion va fiziologik-biokimyoviy asoslari” (2023-2027 yy) mavzusidagi fundamental loyihadagi tadqiqot obyekti sifatida foydalanilgan (O‘zR FA 2025 yil 13 fevraldagi № 4/1255-384-son ma‘lumotnomasi). Natijada, qimmatli xo‘jalik belgilari, jumladan, tola sifati bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan transgressiv shakllar seleksion tadqiqotlarda foydalanish va amaliyotga tavsiya etish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 15 ta, jumladan 5 ta xalqaro, 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 3 ta respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, shartli belgilar va atamalar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi

ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Rangli tolali g'o'zaning ahamiyati, tola rangining hosil bo'lishi hamda morfoxo'jalik belgilarining irsiylanishi, o'zgaruvchanligi va korrelyatsiyasining o'rganilganlik holati**» deb nomlangan birinchi bobida tabiiy rangli tolali g'o'zaning qishloq xo'jaligi va to'qimachilik sanoatidagi ahamiyati, g'o'zada tola rangining hosil bo'lishini ta'minlovchi asosiy omillar, *G.hirsutum* L. rangli tolali nav namunalarida tola rangi va qimmatli xo'jalik belgilarining irsiylanishi, o'zgaruvchanligi va korrelyatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili keltirib o'tilgan. Rangli tolali g'o'za genetikasi va seleksiyasi sohasida olingan natijalar, jumladan, g'o'zada tola rangining hosil bo'lishi, tola sifati va boshqa qimmatli xo'jalik belgilarining irsiylanish xususiyatlari va ularning amaliy seleksiya jarayonlarida qo'llanilishi, afzalliklari borasida xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlarining chuqur tahlili bayon qilingan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot o'tkazish joyi va sharoiti, obykti va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o'tkazilgan joy va sharoitlari, manbalari va uslublari tavsiflangan, g'o'za genetikasi va seleksiyasi usullari, jumladan, duragaylash va gibridologik tahlil, F_1 duragaylarida dominantlik darajasi (hp), belgilar bo'yicha namunalarning kombinatsion qobiliyati (\hat{g}_i), F_2 avlodda irsiylanish koeffitsiyenti (h^2) belgilar orasidagi korrelyatsiya (r) va variatsiya (V%) koeffitsientlarini aniqlash usullari hamda qo'llanilgan molekulyar genetik usullar bayon etilgan. Olingan natijalarning raqamli ko'rsatkichlari Statgraphics 18 va NCSS dasturlarida (ANOVA) genetik-statistik tahlili keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning «***G.hirsutum* L. rangli tolali nav namunalarning F_1 duragaylarida ayrim morfologik hamda qimmatli xo'jalik belgilarining irsiylanishi va kombinatsion qobiliyati**» nomli uchinchi bobida *G.hirsutum* L. turiga mansub, qo'ng'ir va yashil rangli tolali namunalarning o'zaro va oq tolali navlar bilan olingan F_1 duragaylarida tola rangi va qimmatli xo'jalik belgilarining irsiylanishi hamda ayrim xo'jalik belgilari bo'yicha kombinatsion qobiliyati bo'yicha olingan natijalar va ularning gibridologik tahlili keltirilgan.

Bobning birinchi bo'limida qo'ng'ir va yashil tolali namunalarning o'zaro va oq tolali navlar bilan olingan F_1 duragaylarida tola rangining irsiylanishi bo'yicha natijalar bayon qilingan. Unga ko'ra, tola rangi F_1 duragaylarida oraliq holatda irsiylanishi, ya'ni qo'ng'ir bilan oq chatishtirilganda F_1 novvotrang, yashil bilan oq chatishtirilganda F_1 och yashil rang, bundan tashqari, qo'ng'ir bilan yashil rangli namunalarda chatishtirilganda F_1 da oraliq rang (yashilsimon qo'ng'ir) hosil bo'lgan.

Bobning ikkinchi bo'limida rangli tolali nav namunalarning F_1 duragaylarida o'simlik bo'yi, vegetatsiya davri davomiyligi, bitta ko'sakdagi paxta vazni, tola uzunligi va chiqimi, 1000 ta chigit og'irligi va o'simlik mahsuldorligi kabi belgilarining irsiylanishi bo'yicha gibridologik tahlil natijalari keltirilgan. F_1 duragaylarida o'simlik bo'yi belgisi asosan ijobiy to'liqsiz va salbiy o'ta dominantlik, vegetatsiya davri davomiyligi esa ijobiy to'liqsiz hamda o'ta dominantlik holatlarida

irsiylanishi ko'rsatilgan. F₁ avlodda bitta ko'sakdagi paxta vazni asosan ijobiy o'ta dominantlik (011460×010108 da 5,2±0,1g; hp=13,0; Ht=15,5%, Gulshan×Sadaf da 6,6±0,1g; hp=11,0; Ht=9,1%), ijobiy to'liqsiz dominantlik (Gulshan×A-800 da 5,8±0,2g; hp=0,8; Ht=13,7%, 010108×Sadaf da 5,8±0,1g; hp=0,6; Ht=8,4%) holatlarida irsiylendi. Belgi bo'yicha 30 ta F₁ duragaylaridan 27 tasida ota-ona shakllar o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan ijobiy geterozis (Ht=1,6-24,2%) samarasi namayon bo'ldi.

Tola uzunligi belgisi asosan ijobiy to'liqsiz dominantlik (011460×Sadaf da 33,8±0,5mm; hp=0,8; Ht=8,5%, Sadaf×010765 da 33,0±0,2mm; hp=0,7; Ht=9,4%), ijobiy o'ta dominantlik (010765×010108 da 28,1±0,1mm; hp=24,0; Ht=9,3%, 011460×A-800 da 30,9±0,3mm; hp=8,7; Ht=12,8%) va oraliq (A-800×Sadaf da 30,9±0,1mm; hp=0,04; Ht=0,5%, Gulshan×010765 30,4±0,1 mm hp=0,02; Ht=0,3%, Sadaf×A-800 da 30,6±0,3mm; hp=-0,04; Ht=-0,5%) holatlarida irsiylendi. Tola chiqimi belgisi asosan ijobiy to'liqsiz dominantlik (010765×Sadaf da 40,0±0,5%; hp=0,9; Ht=11,1%, 010108×Gulshan da 34,9±0,5%; hp=0,9; Ht=8,4%), ijobiy o'ta dominantlik (Sadaf×010765 da 42,0±0,5%; hp=1,4; Ht=16,7% 010765×Gulshan da 38,8±0,4%; hp=3,1; Ht=16,0%) holatlarida irsiylendi. 1000 ta chigit og'irligi belgisi asosan ijobiy o'ta dominantlik (A-800×Gulshan da 130,1±1,2g; hp=203,0; Ht=8,5%, Gulshan×A-800 da 122,2±1,9g; hp=45,0; Ht=1,9%) va salbiy to'liqsiz dominantlik (010108×A-800 da 105,6±1,3g; hp=-0,8; Ht=-6,0%, Gulshan×010765 da 111,2±1,9g; hp=-0,6; Ht=-2,8%) holatlarida irsiylendi. O'simlik mahsuldorligi belgisi olingan duragaylarning 90% ida ijobiy o'ta dominantlik holatida irsiylendi (1-jadvalga qarang). Ushbu belgi bo'yicha eng yuqori geterozis samarasi 010108×Sadaf duragayida aniqlanib, Ht=24,6% ni tashkil qildi.

Bobning uchinchi bo'limida rangli tolali namunalar va oq tolali navlarning ayrim xo'jalik belgilari bo'yicha kombinatsion qobiliyati ko'rsatkichlari keltirilgan. Mahsuldorlik bo'yicha 010108 namunasida MKQ (maxsus kombinatsion qobiliyat) variatsiyasi UKQ (umumiy kombinatsion qobiliyat) variatsiyasiga nisbatan ustun ($\sigma^2_{si} > \sigma^2_{gi}$) bo'lib, bu holat shu namunada o'simlik mahsuldorligining irsiylanishida noadditiv genlar ta'siri additiv genlar ta'siriga nisbatan kuchli ekanligini bildiradi. Qolgan barcha namunalarda ($\sigma^2_{gi} > \sigma^2_{si}$), ya'ni belgining irsiylanishi additiv genlar nazoratida bo'ldi. Tola chiqimi bo'yicha barcha namunalarda ($\sigma^2_{gi} > \sigma^2_{si}$), ya'ni belgining irsiy nazorati asosan additiv genlar ta'sirida ekanligi aniqlandi. 1000 ta chigit og'irligi belgisi bo'yicha 011460, Gulshan va A-800 namunalari nisbatan yuqori UKQ samarasiga ega bo'ldi. Tola uzunligi bo'yicha barcha namunalarda $\sigma^2_{gi} > \sigma^2_{si}$, ya'ni belgining irsiylanishi asosan additiv genlar nazoratida ekanligi aniqlandi. Tola uzunligining UKQ ko'rsatkichlariga ko'ra, boshqa namunalarga (010108 $\hat{g}_i=0,12$; Gulshan $\hat{g}_i=0,29$ va 010765 $\hat{g}_i=0,37$) nisbatan 011460 ($\hat{g}_i=0,76$), A-800 ($\hat{g}_i=0,50$) va Sadaf ($\hat{g}_i=0,41$) namunalardan tola uzunligi yuqori rangli tolali navlar yaratishda foydalanish samaraliligini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning «*G.hirsutum* L. rangli tolali nav namunalarining F₂ duragaylarida ayrim morfologik va qimmatli xo'jalik belgilarining o'zgaruvchanlik ko'lami, irsiylanish koeffitsiyenti va belgilar orasidagi korrelyatsiya» deb nomlangan to'rtinchi bobida qo'ng'ir va yashil rangli tolali namunalarning


o‘zaro va oq tolali navlar bilan olingan F₂ duragaylarida tola rangi va qimmatli xo‘jalik belgilarining o‘zgaruvchanlik ko‘lamining gibridologik tahlili va irsiylanish koeffitsiyenti (h²) natijalari bayon etilgan. Bobning birinchi bo‘limida Tola rangi bo‘yicha F₂ dagi ajralish tahliliga ko‘ra, qo‘ng‘ir bilan oq hamda yashil bilan oq ranglarga ega namunalarning kombinatsiyalarida ota-ona namunalari monogen

1-jadval

***G.hirsutum* L. rangli tolali nav namunalari F₁ duragaylarida o‘simlik mahsuldorligi belgisining irsiylanishi va geterozis samarasi**

№	Ota-ona shakllari va F ₁ duragaylari	Tola rangi	O‘simlik mahsuldorligi (g/o‘simlik) $\bar{x} \pm S \bar{x}$	hp	Ht - geterozis samarasi (%)
1	010765	Qo‘ng‘ir	77,8±1,7	-	-
2	010108	Qo‘ng‘ir	70,3±1,5	-	-
3	A-800	Yashil	66,9±1,8	-	-
4	011460	Yashil	70,0±1,6	-	-
5	Sadaf	Oq	90,3±1,3	-	-
6	Gulshan	Oq	88,8±1,4	-	-
7	010765 × 010108	Qo‘ng‘ir	81,1±1,2	1,5	9,1
8	010765 × A-800	Yashilsimon qo‘ng‘ir	74,2±1,0	0,1	0,9
9	010765 × 011460	Yashilsimon qo‘ng‘ir	80,9±1,3	1,5	9,2
10	010765 × Sadaf	Novvotrang	91,2±1,0	1,1	7,9
11	010765 × Gulshan	Novvotrang	90,6±1,2	1,4	8,2
12	010108 × 010765	Qo‘ng‘ir	82,3±1,0	1,8	10,7
13	010108 × A-800	Yashilsimon qo‘ng‘ir	80,9±1,1	14,6	16,9
14	010108 × 011460	Yashilsimon qo‘ng‘ir	80,0±1,9	41,0	14,7
15	010108 × Sadaf	Novvotrang	99,9±0,5	1,9	24,6
16	010108 × Gulshan	Novvotrang	92,3±1,5	1,4	16,2
17	A-800 × 010765	Yashilsimon qo‘ng‘ir	82,6±1,7	1,8	12,3
18	A-800 × 010108	Yashilsimon qo‘ng‘ir	81,9±0,9	16,0	18,3
19	A-800 × 011460	Yashil	75,1±1,3	11,2	8,9
20	A-800 × Sadaf	Och yashil	89,8±1,3	0,9	13,1
21	A-800 × Gulshan	Och yashil	93,9±1,0	1,5	19,5
22	011460 × 010765	Yashilsimon qo‘ng‘ir	80,0±1,6	1,3	7,9
23	011460 × 010108	Yashilsimon qo‘ng‘ir	80,6±2,0	43,4	15,5
24	011460 × A-800	Yashil	79,7±1,5	19,5	15,6
25	011460 × Sadaf	Och yashil	91,3±1,6	1,1	14,2
26	011460 × Gulshan	Och yashil	92,2±1,3	1,3	16,5
27	Sadaf × 010765	Novvotrang	93,6±1,4	1,5	10,7
28	Sadaf × 010108	Novvotrang	90,8±1,3	1,0	13,2
29	Sadaf × A-800	Och yashil	91,1±0,9	1,1	14,7
30	Sadaf × 011460	Och yashil	92,4±1,5	1,2	15,6
31	Sadaf × Gulshan	Oq	93,0±1,1	4,2	3,8
32	Gulshan × 010765	Novvotrang	90,3±0,9	1,3	7,8
33	Gulshan × 010108	Novvotrang	96,6±1,0	1,8	13,7
34	Gulshan × A-800	Och yashil	93,5±1,5	1,5	21,6
35	Gulshan × 011460	Och yashil	90,3±0,9	1,2	14,1
36	Gulshan × Sadaf	Oq	100,1±0,8	13,1	11,7

farqqa egaligi uchun ularda monogen tipdagi ya'ni F₂ avlodda 1:2:1 nisbatda ajralish kuzatildi. Qo'ng'ir va yashil tola rangiga ega ota-ona shakllari digen farqlanishga ega ekanligi aniqlandi. Shuning asosida, ular chatishtirilganda genlar o'zaro ta'sirining epistatik tipi tufayli F₂ da 7 ta fenotipik sinflar hosil bo'ldi (1-rasmga qarang). Fenotipik nisbat esa 4:2:4:2:1:2:1 ga teng bo'ldi (2-jadvalga qarang).



1-rasm. F₂ 010108×011460 duragayida tola rangi bo'yicha ajralgan fenotipik va genotipik sinflar.

Bobning ikkinchi bo'limida rangli tolali nav namunalarining F₂ avlodida qimmatli xo'jalik belgilarining o'zgaruvchanlik ko'lami (V%), irsiylanish koef-fitsiyenti (h²) va ularning tahlili bayon qilingan. Unga ko'ra, bitta ko'sakdagi paxta vazni belgisi bo'yicha o'zgaruvchanlik ko'lami 9 tadan 11 tagacha sinfni tashkil etdi. O'simliklarning eng ko'p foizi 010108×011460, 011460×010108, Sadaf×010765 va Sadaf×A-800 kombinatsiyalarida 4,6-5,0g., 010108×Sadaf, 011460×Sadaf, 011460×Gulshan va Sadaf×010108 kombinatsiyalarida 5,1-5,5 g., Sadaf×011460 da esa 5,6-6,0g. ko'rsatkichli modal sinflarda qayd etildi. 9 ta F₂ kombinatsiyalaridan 6 tasida (010108×011460, 011460×010108, 011460×Gulshan, Sadaf×010765, Sadaf×010108 va Sadaf×011460) o'ng tomonga bir sinfga siljigan holda namoyon bo'luvchi ijobiy transgressiya mavjudligi aniqlandi.

Belgining irsiylanish koeffitsiyenti (h²) duragaylarda 0,40-0,65 ni tashkil etdi. Variatsiya koeffitsiyenti 17,2-22,0% ni tashkil etdi, bu esa ko'sak og'irligi belgisi F₂ duragaylarida o'rtacha hamda keng ko'lamlı o'zgaruvchanlikka ega belgi sifatida namoyon bo'lganligini ko'rsatadi. F₂ duragaylarida tola chiqimi belgisi bo'yicha o'zgaruvchanlik ko'lami 7-9 sinfni tashkil qildi. F₂ Sadaf×010108 kombinatsiyasida o'simliklarning eng ko'p qismi 37,0-39,9 % li modal sinfdan qayd qilinib, barcha F₂ duragaylari va ota-ona shakllaridan ham yuqori ko'rsatkichli sinfni namoyon qildi. Sadaf×010765 da 34,0-36,9%, 010108×Sadaf, 011460×Sadaf va Sadaf×011460 kombinatsiyalarida 31,0-33,9% hamda 011460×010108, 011460×Gulshan va

Sadaf×A-800 kombinatsiyalarida 28,0-30,9% hamda 010108×011460 kombinatsiyasida 19,0-21,9% ko‘rsatkichli modal sinflar boshqa sinflarga nisbatan eng yuqori foizni tashkil qildi. Tola chiqimining irsiylanish koeffitsiyenti (h^2) duragaylarda 0,60-0,80 ni tashkil etgani bu belgi rivojlanishida muhit ta‘siriga nisbatan genotipning ro‘li yuqoriligini ko‘rsatdi. Variatsiya koeffitsiyenti 13,5-21,3% ni tashkil etdi, bu esa tola chiqimi F_2 duragaylarida o‘rtachadan keng ko‘lamgacha o‘zgaruvchanlikka ega belgi sifatida namoyon bo‘lganligidan dalolat beradi.


2- jadval

G. hirsutum L. nav namunalarining F_2 avlodida tola rangi belgisining o‘zgaruvchanligi

№	Material	n	Tola rangi (Fenotip)							Nisbat	χ^2	P
			Qo‘ng‘ir	Yashil	Oq	Oraliq rang (Novvotrang)	Oraliq rang (Och yashil)	Oraliq rang 1 (Qo‘ng‘irsimon yashil)	Oraliq rang 2 (Yashilsimon qo‘ng‘ir)			
1	010765	40	40	-	-	-	-	-	-	-	-	-
2	010108	40	40	-	-	-	-	-	-	-	-	-
3	A-800	40	-	40	-	-	-	-	-	-	-	-
4	011460	40	-	40	-	-	-	-	-	-	-	-
5	Sadaf	40	-	-	40	-	-	-	-	-	-	-
6	Gulshan	40	-	-	40	-	-	-	-	-	-	-
7	F_1 010108 × 011460	50	-	-	-	-	-	-	50	-	-	-
8	F_1 010108 × Sadaf	50	-	-	-	50	-	-	-	-	-	-
9	F_1 011460 × 010108	50	-	-	-	-	-	-	50	-	-	-
10	F_1 011460 × Sadaf	50	-	-	-	-	50	-	-	-	-	-
11	F_1 011460 × Gulshan	50	-	-	-	-	50	-	-	-	-	-
12	F_1 Sadaf × 010765	50	-	-	-	50	-	-	-	-	-	-
13	F_1 Sadaf × 010108	50	-	-	-	50	-	-	-	-	-	-
14	F_1 Sadaf × A-800	50	-	-	-	-	50	-	-	-	-	-
15	F_1 Sadaf × 011460	50	-	-	-	-	50	-	-	-	-	-
16	F_2 010108 × 011460	153	38	13	5	16	20	27	34	4:2:4:2:1:2:1	7,67	0,50-0,20
17	F_2 010108 × Sadaf	130	34	-	28	68	-	-	-	1:2:1	0,83	0,80-0,50
18	F_2 011460 × 010108	150	35	15	6	13	20	17	44	4:2:4:2:1:2:1	8,05	0,50-0,20
19	F_2 011460 × Sadaf	136	-	32	36	-	68	-	-	1:2:1	0,23	0,95-0,80
20	F_2 011460 × Gulshan	128	-	35	33	-	60	-	-	1:2:1	0,56	0,80-0,50
21	F_2 Sadaf × 010765	125	27	-	32	66	-	-	-	1:2:1	0,79	0,80-0,50
22	F_2 Sadaf × 010108	132	32	-	30	70	-	-	-	1:2:1	0,54	0,80-0,50
23	F_2 Sadaf × A-800	130	-	34	35	-	61	-	-	1:2:1	0,50	0,80-0,50
24	F_2 Sadaf × 011460	133	-	33	35	-	65	-	-	1:2:1	0,13	0,95-0,80
25	F_1 (011460 × 010108) × 011460	75	-	12	-	-	23	18	22	1:1:1:1	3,78	0,50-0,20

Tola chiqimi belgisi bo‘yicha 010108×011460, 010108×Sadaf, Sadaf× 010108 va 011460×Sadaf kombinatsiyalarida o‘ng tomonli transgressiya, ya‘ni ota -ona shakllarining ko‘rsatkichlaridan ham yuqori chiqimga ega bo‘lgan rekombinantlar ajralib chiqdi. Sadaf×010765 kombinatsiyasida ham o‘ng tomonlama, ham chap tomonlama transgressiya qayd etildi. 1000 ta chigit og‘irligi belgisining irsiylanish koeffitsiyenti (h^2) F_2 duragaylarida 0,34-0,65 ni tashkil etdi. Variatsiya koeffitsiyenti

13,9-18,5% ga teng bo‘lib, o‘rtacha o‘zgaruvchanlikka ega belgi sifatida namoyon bo‘ldi. O‘simlik mahsuldorligi belgisi bo‘yicha o‘zgaruvchanlik ko‘lami 010108×011460, 010108×Sadaf, 011460×010108 kombinatsiyalarida 9 ta sinfga, qolgan barcha duragay kombinatsiyalarda esa 10 ta sinfga ajraldi (2-rasmga qarang). F₂ duragaylaridan 010108×Sadaf kombinatsiyasida 81,0-90,9g., Sadaf×010765, Sadaf×010108 va Sadaf×011460 kombinatsiyalarida 61,0-70,9g., 010108×011460, 011460×Sadaf, 011460×Gulshan duragaylarida 51,0-60,9 g., 011460×010108 va Sadaf×A-800 kombinatsiyalarida esa 41,0-50,9g. ko‘rsatkichli modal sinflar boshqa sinflarga nisbatan eng ko‘p foizni tashkil qildi.



2-rasm. F₂ kombinatsiyalarida o‘simlik mahsuldorligi belgisining o‘zgaruvchanlik ko‘lami

O‘simlik mahsuldorligining irsiylanish koeffitsiyenti (h^2) o‘rtachadan to yuqori darajagacha bo‘lib, 011460×Sadaf kombinatsiyasida $h^2=0,45$ ni, Sadaf×010765 kombinatsiyasida esa $h^2=0,76$ ni tashkil etdi. Qolgan F₂ duragaylarida belgining irsiylanish koeffitsiyenti (h^2) 0,59-0,75 oralig‘ida bo‘ldi. Variatsiya koeffitsiyenti 26,6-32,0% ni tashkil etdi, bu esa o‘simlik mahsuldorligi belgisi F₂ duragaylarida keng doiradagi o‘zgaruvchanlikka ega bo‘lganligidan dalolat beradi. O‘simlik mahsuldorligi belgisi bo‘yicha barcha F₂ kombinatsiyalarida o‘ng tomonlama transgressiya, ya‘ni ota-ona shakllari ko‘rsatkichlaridan ham yuqori hosilli rekombinantlarning ajralib chiqqanligi aniqlandi.

Bobning uchinchi bo‘limida *G.hirsutum* L. rangli tolali namunalarning F₂ avlodida tolaning texnologik sifat ko‘rsatkichlari tola rangiga bog‘liq holda taqqoslangan. Buning uchun har xil rangli 3 ta F₂ duragaylari, ya‘ni 011460×010108, 010108×Sadaf va 011460×Sadaf kombinatsiyalari tanlab olindi va HVI (High Volume Instrument) tizimi orqali tolaning sifat ko‘rsatkichlari aniqlandi.

Tolaning texnologik sifat belgilari bo‘yicha natijalar tahliliga ko‘ra, F₂ duragaylarida tola sifati ko‘rsatkichlari tola rangiga qarab bir-biridan sezilarli darajada farq qildi. Tadqiqotlarimizda tolaning texnologik sifat belgilaridan SCI- ip yigiruvchanlik koeffitsienti; Mic- mikroneyr; Mat- pishib yetilganlik koeffitsienti (%); UHML- yuqori o‘rtacha uzunlik (dyuym); UI- bir xillik indeksi; Str- solishtirma uzilish kuchi (g kuch/ teks); Elg- uzilishdagi uzayish (elastiklik); Rd- nur qaytarish

koefitsienti (%) kabi asosiy sifat ko'rsatkichlari aniqlandi. F₂ 011460×010108 duragayidagi deyarli barcha belgilar (Elg- uzilishdagi uzayish va Rd- nur qaytarish koefitsientidan tashqari) bo'yicha oqdan rangliga o'tgan sari sifat ko'rsatkichlari pasayib bordi. Lekin, oraliq ranglar (och yashil va novvotrang) boshqalariga nisbatan oq tolaga yaqin sifat ko'rsatkichlarini namoyon qildi. Yashil rangli tola qo'ng'irga nisbatan yuqori tola sifatiga ega bo'ldi.


F₂ 011460×010108 duragayida yuqori o'rtacha uzunlik, ip yigiruvchanlik koefitsienti va solishtirma uzilish kuchi bo'yicha yashil tola (SCI 120,1±3,0; UHML 1,05±0,02; Str 23,0±0,7) qo'ng'irga (SCI 98,8±2,5; UHML 0,90±1,1; Str 21,2±0,9) nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. Och yashil va novvotrang tolali populyatsiyalar nisbatan yuqori, ya'ni oq tolaga yaqin sifat belgilariga ega bo'ldi. Yashil va qo'ng'irni chatishtirishdan hosil bo'lgan oraliq rang 1 va oraliq rang 2 lar esa yuqoridagi belgilar bo'yicha oraliq ko'rsatkichlarga ega bo'ldilar. Mikroneyr ko'rsatkichiga ko'ra, rangli tola ingichka darajadagi mikroneyr (qo'ng'ir 3,8±0,3; yashil 3,4±0,2) ega bo'ldi. Shu bilan birga, ularning populyatsiyasida o'rta darajadagi mikroneyr ega namunalar ham uchradi. Yashil va qo'ng'ir tolali namunalarni oq tolali navlar bilan (Mic=4,5±0,3) bilan duragaylashdan hosil bo'lgan och yashil (Mic=4,5±0,2) va novvotrang (Mic=4,4±0,4) tolalarda esa mikroneyr o'rta darajaga o'tdi. Yashil va qo'ng'ir tolali namunalarni chatishtirishdan hosil bo'lgan oraliq rang 1 (Mic=3,0±0,1) va oraliq rang 2 (Mic=3,0±0,2) larda esa mikroneyrning o'rtacha ko'rsatkichi pasaydi. Variatsiya koefitsienti oraliq rang 1 da 20,5%, oraliq rang 2 da esa 8,0% ga ega bo'ldi. Uzilishdagi uzayish va nur qaytarish koefitsientlari jihatdan rangli tola oq tolaga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga egaligi aniqlandi.

F₂ 010108×Sadaf duragayida tola sifati belgilarining tahliliga ko'ra, qo'ng'ir rangli tola shu kombinatsiyaning oq va novvotrang populyatsiyasiga nisbatan nur qaytarish koefitsienti, uzilishdagi uzayish va kalta tolalar indeksi kabi belgilar bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgani holda boshqa barcha belgilar bo'yicha past sifat ko'rsatkichlarni namoyon qildi. F₂ 011460×Sadaf duragayida yashil tola oqqa nisbatan Elg (tolaning elastikligi) bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga, qolgan belgilar bo'yicha nisbatan past ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. Biroq, och yashil tola ip yigiruvchanlik koefitsienti, mikroneyr va uzilishdagi uzayish (elastiklik) belgilari bo'yicha oq toladan ham yaxshi sifat ko'rsatkichlarini namoyon qildi (3-rasmga qarang).

Bobning to'rtinchi bo'limida rangli tolali nav namunalarining F₂ duragaylarida sifat va miqdor belgilari orasidagi korrelyatsiya natijalarining tahlili keltirilgan. Unga ko'ra, ko'pchilik kombinatsiyalarda tola rangi (oqqa nisbatan) bilan tola chiqimi orasida o'rtachadan kuchligacha bo'lgan salbiy korrelyatsiya aniqlandi. Biroq, F₂ 011460×010108, Sadaf×010108 va Sadaf×011460 duragaylarida tola chiqimi bilan tolaning novvotrang va och yashil (oqqa nisbatan) ranglari orasidagi korrelyatsiyaning yo'qolishi yoki ijobiy korrelyatsiyaga aylanish holati (novvotrangda) qayd etildi.

Tolaning qo'ng'ir rangi bilan (yashilga nisbatan) tola chiqimi orasida ijobiy o'rtacha korrelyatsiya (r=0,50*** va r=0,46***) aniqlandi. Novvotrang tola bilan (och yashilga nisbatan) tola chiqimi orasida ijobiy o'rtacha (r=0,37*) va kuchsiz

